

1-kurs talabalari fakultet jamoasi bilan tanishdi

Talabalikka qabul qilinish - bu yoshlar uchun eng baxtli hodisa deb aystsak, mubolag'a bo'lmaydi. Shu sababli, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakultetining 1-bosqichiga qabul qilingan talaba-yoshlar bilan fakultet jamoasi o'rtasida tanishtiruv suhbatি bo'lib o'tdi.

Unda, fakultet dekani U. Qo'ziyev, kafedra mudirlari K.Astanakulov, A.Igamberdiyev, M.Amonov, I.Avazov, yoshlar bilan ishslash bo'yicha dekan o'rribosari H.Boymatov va fakultet dekani o'rribosarlari B.Sarimsakov, U.Berdimurodov, N.Abdiyevlar ishtirot etishdi. Tanishtiruv jarayonida talaba-yoshlar institut va fakultet haqidagi barcha ma'lumotlarga ega bo'lishdi.



"Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti yoshlar bilan ishslash bo'yicha dekan o'rribosari
H.Boymatov axboroti
Institut Matbuot xizmati rahbari R.Jumaniyozov